



XORIJIY DAVLATLAR KONSTITUTSIYALARIDA FUQARO VA DAVLATNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MUSTAHKAMLASH USULLARI

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti Davlat boshqaruvi huquqi yo'nalishi magistranti Yo'ldoshev Husniddin

Anotatsiya. Mazkur tezisda xorijiy davlatlar konstitutsiyalari tahlil qilinib, fuqarolarning huquqlari va davlatning majburiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning konstitutsiyaviy-huquqiy asosda qanday shakllantirilgani yoritiladi. Ayrim davlatda fuqarolarning erkinliklari nafaqat kafolatlanishi, balki davlat tomonidan ijtimoiy va huquqiy himoya qilish majburiyatlari bilan uyg'unlashgani ko'rsatiladi. Tezisda konstitutsiyaviy muvozanatning demokratik boshqaruvdagi munosabatlarning huquqiy barqarorligini ta'minlashdagi roli ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiyaviy-huquqiy muvozanat, fuqaro huquqlari, davlat majburiyatlari, xorijiy konstitutsiyalar, huquq va majburiyat dialektikasi, demokratik boshqaruv, huquqiy davlat, inson huquqlari, konstitutsiyaviy tamoyillar, huquqiy mexanizmlar

Kirish. Zamonaviy konstitutsiyalar fuqarolar va davlat o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni aniq belgilab beruvchi asosiy huquqiy hujjatlar hisoblanadi. Fuqaro huquqlari va erkinliklari, ularning davlat oldidagi majburiyatlari, shuningdek davlatning o'z fuqarolari oldidagi burchlari ushbu huquqiy munosabatlarning markazida turadi. Mazkur tezisda xorijiy davlatlar, xususan AQSh, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya Federatsiyasi va boshqa mamlakatlar konstitutsiyalarida ushbu masala qanday yondashuvlar asosida tartibga solinishi o'rganiladi.

Asosiy qism. Fuqaro va davlat o'rtasidagi huquqiy bog'liqlik huquqiy davlat konsepsiyasining markaziy elementlaridan biridir. Bu munosabat bir tomonlama emas, balki o'zaro majburiyat va javobgarliklar asosida shakllanadi. Fuqaro mustaqil huquqiy shaxs sifatida davlatdan ajratilgan, biroq uning huquqiy maqomi aynan davlat tomonidan tan olinadi va himoya qilinadi. Bu holat fuqaro mustaqilligini inkor etmagan holda, uni huquqiy tizim bilan bog'laydi.

Fuqaro va davlat o'rtasidagi huquqiy bog'liqlikning nazariy asoslari Demokratik huquqiy davlat nazariyasiga ko'ra, fuqaro mustaqil, ammo huquqiy jihatdan davlat bilan bog'langan subyektdir. Unga berilgan huquqlar davlat tomonidan kafolatlanadi, davlat esa o'z vakolatlarini aynan fuqarolarning roziligi asosida amalga oshiradi. Bu xalq suvereniteti tamoyilidir, ya'ni davlat hokimiyati xalqdan kelib chiqadi va xalq irodasi bilan cheklanadi[1].



Xalq suvereniteti – bog‘liqlikning konstitutsiyaviy manbai Konstitutsiyaviy huquqiy nazariyada bu o‘zaro bog‘liqlik xalq suvereniteti tamoyiliga tayanadi. Ya’ni, davlat hokimiyati oliy manbai xalqning o‘zidir. Fransuz inqilobi davrida shakllangan bu tamoyil 1789-yilgi Inson va fuqarolar huquqlari deklaratsiyasida quyidagicha ifodalangan edi:

Har qanday suverenitetning asosi millatdir. Hech bir jamoa yoki shaxs undan hokimiyatni olishi mumkin emas, faqat xalq roziligi bilangina hokimiyat qonuniy bo‘ladi. Bu shuni anglatadiki, davlatning har qanday vakolati – parlamentdan tortib, ijro hokimiyatiga qadar – xalqning roziligi va qonuniy vakilligi orqali amal qiladi.

Huquqiy kafolat va javobgarlikning o‘zaro chambarchasligi Fuqaroning huquqlari mustaqil tarzda mavjud bo‘lsa-da, ularning konstitutsiyaviy kafolati — davlat zimmasidagi majburiyat sifatida qaraladi. Masalan, insonning yashash huquqi, mulk huquqi yoki fikr bildirish erkinligi fuqaroga tug‘ma tarzda berilgan bo‘lishi mumkin, ammo ularning real hayotda amalga oshirilishi davlat tomonidan yaratilgan qonuniy asoslar, sud himoyasi va boshqaruv tizimi orqali ta’minlanadi.

Shu nuqtai nazardan, fuqaro va davlat o‘rtasidagi huquqiy bog‘liqlik bir-biriga qarshi emas, balki to‘ldiruvchi elementlardir.

Mazkur munosabat “huquq–majburiyat” dialektikasi asosida qaraladi: fuqarolarning huquqlari — davlatning majburiyatlaridan, davlatning vakolatlari esa — fuqarolarning roziligidan kelib chiqadi. Versteeg va Alton (2020) buni “huquqiy muvozanat” tamoyili deb ataydi[2].

AQSh Konstitutsiyasi 1787-yilda qabul qilingan bo‘lib, federal hokimiyatning asosiy tamoyillarini belgilaydi. Unda fuqarolarning huquqlari alohida hujjat — 1791-yilda qabul qilingan *Huquqlar to‘g‘risidagi Bill* (Bill of Rights) orqali mustahkamlangan. Mazkur hujjatda fuqarolarning asosiy konstitutsiyaviy erkinliklari belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ular davlat tomonidan tan olinishi va himoya qilinishi lozim. Bu jihatdan AQSh Konstitutsiyasi fuqarolar va davlat o‘rtasidagi "huquq–majburiyat" dialektikasining yorqin ifodasidir.

Jumladan, *Bill of Rights*ning 1-moddasida so‘z va diniy erkinlik kafolatlangan. Mazkur modda quyidagicha ifodalanadi: “Kongress diniy e’tiqod o‘rnatish yoki erkin diniy amaliyotni taqiqlovchi qonun chiqarmasligi, so‘z, matbuot, tinch yig‘ilish, va hukumatga murojaat qilish erkinligini cheklovchi qonun qabul qilmasligi kerak.” Bu norma orqali fuqarolar o‘z fikrini erkin ifoda etish, diniy e’tiqodiga ko‘ra yashash huquqiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, davlat bu erkinliklarni cheklovchi har qanday qonuniy harakatlardan tiyilishi lozim. Bu holatda fuqarolarning huquqi — davlat zimmasidagi majburiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Davlatning vazifasi — mazkur huquqlarni buzmaslik va ularni himoya qilish uchun zarur mexanizmlarni yaratishdan iborat.

Shuningdek, *Huquqlar to‘g‘risidagi Bill*ning 4-moddasi shaxs daxlsizligini kafolatlaydi. Unda quyidagi norma bayon etilgan: “Xalqning o‘zlari, uylari, hujjatlari va mulki asossiz tintuv va musodara qilinishdan daxlsiz bo‘lish huquqi buzilmasligi lozim, va



bu huquq faqat asosli sabab bo'lgandagina, qasamyod bilan tasdiqlangan order asosida, aniq ko'rsatilgan joy, odam yoki narsa bo'yicha amalga oshirilishi mumkin." Ushbu modda fuqarolarning shaxsiy hayoti, mulki va yashash joyiga nisbatan davlat aralashuvini qat'iy tartibga soladi. Asossiz tintuvlar va musodara qilish harakatlari taqiqlanadi. Faqat sud orderi asosida, qonuniy zarurat bo'lgan taqdirda bu kabi aralashuvlarga ruxsat beriladi. Bu esa davlat organlarining vakolatlariga aniq huquqiy chegara o'rnatadi.

Yuqoridagi ikki modda tahlili asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: AQSh konstitutsiyaviy tizimi fuqarolarning erkinliklarini muqaddas deb biladi va ularni himoya qilishni davlatning asosiy burchi sifatida belgilaydi. Bu esa Versteeg va Alton (2020) tomonidan ilgari surilgan "huquqiy muvozanat" tamoyiliga to'liq mos keladi. Mazkur tamoyilga ko'ra, fuqarolarning huquqlari — davlatning majburiyatlaridan, davlat vakolatlari esa — fuqarolarning roziligi va roziligi asosidagi ijtimoiy kelishuvdan kelib chiqadi. Bu muvozanat demokratik boshqaruvning poydevori hisoblanadi va davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ishonch asosini tashkil etadi.

Germaniya Asosiy Qonuni (Grundgesetz) 1949-yilda qabul qilingan bo'lib, mamlakatning konstitutsiyaviy poydevorini tashkil etadi. Ushbu hujjat inson sha'ni va huquqlarining ustuvorligini davlat hokimiyatining asosiy cheklovi sifatida belgilaydi. Bu jihatdan Germaniya konstitutsiyaviy modeli davlat va fuqaro o'rtasidagi huquqiy muvozanatni "inson markazidagi" yondashuv asosida shakllantiradi.

Germaniya Asosiy Qonuni (Grundgesetz) modeli Germaniya Asosiy Qonuni (1949) 1-moddasida inson sha'ni davlatdan ham yuqori qo'yiladi: "Inson sha'ni daxlsizdir. Uni hurmat qilish va himoya qilish – davlatning burchidir." Bu davlatga nisbatan "pozitiv majburiyat"ni belgilaydi[3].

Mazkur norma ikki muhim tamoyilni o'z ichiga oladi. Birinchidan, inson sha'ni davlatdan ustun, ya'ni hech qanday hokimiyat inson sha'nini tahqirlay olmaydi. Ikkinchidan, davlat ushbu sha'nni nafaqat buzmasligi, balki uni faol himoya qilishi ham shart. Bu konstitutsiyaviy yondashuv xalqaro huquqdagi "pozitiv majburiyat" tushunchasiga mos keladi. Ya'ni, davlat inson huquqlarini faqat cheklamaslik bilan cheklanmaydi, balki ularni himoya qilish uchun zarur chora-tadbirlarni ham ko'rishi lozim. Bu tamoyil, ayniqsa, davlat xizmatlari, sud-huquq tizimi, ijtimoiy ta'minot va xavfsizlik siyosatida muhim o'rin tutadi.

Ushbu qonuning 19-moddasi har bir erkinlik huquqi boshqa insonlarning huquqlari bilan cheklanishini nazarda tutadi, ya'ni davlat "faol himoyachi" bo'lishi lozim, lekin boshqa fuqarolarning huquqlarini ta'minlash doirasida harakat qiladi[4]. Ya'ni, erkinliklar cheksiz emas, ular boshqa fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari bilan chegaralangan bo'lishi lozim. Bu tamoyil davlatning "faol himoyachi" sifatidagi rolini mustahkamlaydi: davlat inson erkinliklarini himoya qilishi shart, biroq bu faoliyat boshqa fuqarolarning qonuniy manfaatlariga ziyon yetkazmasligi kerak.



Demak, Germaniya Asosiy Qonuni inson huquqlari va davlat vakolatlari o'rtasida nozik muvozanatni yaratishga xizmat qiladi.

Fransuz konstitutsiyaviy tizimi 1789-yilda qabul qilingan Inson va fuqarolarning huquqlari deklaratsiyasi asosida shakllangan bo'lib, u hanuzgacha Fransiya Konstitutsiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur deklaratsiya fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini bayon etish bilan birga, ularni amalga oshirishdagi huquqiy va axloqiy cheklovlarni ham belgilab beradi. Bu yondashuv fuqarolik erkinliklari va ijtimoiy mas'uliyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi.

Deklaratsiya davlat organlarini fuqarolarning huquqlarini hurmat qilish va amalga oshirishga majbur qiladi. Shu bilan birga, fuqarolar ham ijtimoiy majburiyatlarni bajarishga chaqiriladi [6].

Ayniqsa, deklaratsiyaning 4-moddasida erkinlik mohiyati aniq va qisqa formulada ifoda etilgan: "Erkinlik — bu o'zgalarga zarar yetkazmaydigan harakatni bajarish huquqidir." Mazkur tamoyil Fransuz huquqiy tafakkuridagi fundamental konsepsiyalardan biri bo'lib, huquqlarni cheksiz va mutlaq emas, balki ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'un holda tushunishga asos bo'ladi. Erkinlikka bunday yondashuv shuni anglatadiki, har bir fuqaro o'z huquqlarini amalga oshirishda boshqa insonlarning huquqlari va manfaatlarini inobatga olishi lozim. Ya'ni, fuqaroning erkinligi — u boshqalarning erkinligiga tajovuz qilmaydigan doiradagina kafolatlanadi [5].

Bu prinsip davlatga ikki tomonlama vazifani yuklaydi. Birinchidan, davlat erkinliklarni tan oladi va ularni himoya qiladi. Ikkinchidan esa, ushbu erkinliklar boshqa fuqarolarning huquqlari bilan to'qnash kelmasligi uchun zaruriy me'yoriy-chegaraviy mexanizmlarni belgilaydi. Shunday qilib, deklaratsiyada huquq va majburiyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniq va lo'nda tarzda huquqiy prinsipga aylantirilgan. Mazkur tamoyil Fransuz huquqiy tafakkuridagi fundamental konsepsiyalardan biri bo'lib, huquqlarni cheksiz va mutlaq emas, balki ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'un holda tushunishga asos bo'ladi. Erkinlikka bunday yondashuv shuni anglatadiki, har bir fuqaro o'z huquqlarini amalga oshirishda boshqa insonlarning huquqlari va manfaatlarini inobatga olishi lozim. Ya'ni, fuqaroning erkinligi — u boshqalarning erkinligiga tajovuz qilmaydigan doiradagina kafolatlanadi.

Fransiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, demokratik jamiyatda erkinlik faqat huquq sifatida emas, balki mas'uliyatli foydalaniladigan ijtimoiy institut sifatida qaraladi. Bu yondashuv, o'z navbatida, fuqarolarning ongida huquq madaniyatini shakllantirish va jamiyatdagi o'zaro hurmat tamoyilini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yaponiya Konstitutsiyasi (1947) Yaponiya Konstitutsiyasi 12–18-moddalarida shaxs erkinliklari, siyosiy huquqlar va tenglik kafolatlarini belgilaydi. 12-modda har bir huquqni ongli va ijtimoiy mas'uliyatli tarzda amalga oshirishni talab qiladi [7].



Bu konstitutsiyasining 30-moddada soliqlarni adolatli tarzda to‘lash fuqarolarning asosiy konstitutsiyaviy majburiyati sifatida qayd etilgan. Bu davlat va fuqaro o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlikning huquqiy shaklidir [8]. Ya’ni soliq to‘lash faqat moliyaviy majburiyat emas, balki davlat faoliyatini qonuniy asosda moliyalashtirish va umumiy manfaatlarni ta’minlashdagi fuqarolik mas’uliyatidir. Bu yondashuv, bir tomondan, fuqarolarning iqtisodiy faoliyatini davlat oldidagi mas’uliyatga bog‘lasa, ikkinchi tomondan, davlat tomonidan soliqlarning adolatli va shaffof yo‘nalishlarda sarflanishini ham nazarda tutadi.

Shu tariqa, deklaratsiyaning 30-moddasi soliqqa oid huquqiy munosabatlarni ikki tomonlama – fuqarolik burchi va davlat majburiyati sifatida belgilaydi, bu esa huquqiy va iqtisodiy barqarorlikning asosiy garovidir.

Janubiy Koreya Konstitutsiyasi Janubiy Koreya Konstitutsiyasida keng doiradagi huquqlar (so‘z erkinligi, ta’lim olish, mulk huquqi) tan olingan. Shu bilan birga, har bir fuqaro davlat mudofaasiga xizmat qilish, soliqlarni to‘lash va qonunlarga rioya qilishga majbur deb hisoblanadi (39–40-moddalar) [9]. Mazkur yondashuv shundan iboratki, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari deklarativ emas, balki huquqiy jihatdan kafolatlangan bo‘ladi. Shu bilan birga, davlat faqat huquqlarni tan olibgina qolmay, balki ularni ta’minlash va himoya qilish borasida **pozitiv majburiyatlarni** ham bajaradi. Ya’ni, Konstitutsiya orqali davlat fuqarolarning erkinligi, xavfsizligi, tengligi va ijtimoiy farovonligini ta’minlovchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Bunday muvozanatli yondashuv, bir tomondan, davlat vakolatlarini konstitutsiyaviy doirada cheklaydi, ikkinchi tomondan esa fuqarolarning majburiyatlarini (masalan: qonunlarga rioya qilish, soliq to‘lash, boshqa fuqarolarning huquqlarini hurmat qilish kabi) ham asoslaydi. Shu jihatdan, konstitutsiyaviy yondashuv “huquq–majburiyat” dialektikasiga tayangan bo‘lib, har ikki tomon — davlat va fuqaro — o‘zaro huquqiy javobgarlik asosida faoliyat yuritadi.

Shunday qilib, konstitutsiyaviy yondashuv nafaqat davlat hokimiyati va fuqaroning o‘zaro aloqalarini tartibga soladi, balki demokratik jamiyatda barqarorlik, huquqiylik va adolat prinsiplari ustivorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Konstitutsiya fuqarolik huquqlari va davlat majburiyatlarini muvozanatli asosda qaror toptiradi. Bu “konstitutsiyaviy yondashuv” deb ataladi va demokratik tizimda o‘ziga xos model hisoblanadi [10].

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi (1993) Rossiya Konstitutsiyasining 17–64-moddalarida asosiy huquq va erkinliklar bayon etilgan. Shuningdek, 55-modda shaxsiy huquqlarni faqat qonuniy asosda va boshqa insonlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida cheklash mumkinligini nazarda tutadi[11].

Konstitutsiyaning 55-moddasida inson huquqlarini cheklash faqat qonuniy asosda va boshqa fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida amalga oshirilishi



mumkinligi qat'iy belgilangan. Bu tamoyil huquqlarni himoya qilish va ularni ijtimoiy muvozanat doirasida tartibga solish o'rtasidagi konstitutsiyaviy ehtiyojni aks ettiradi. Shu tarzda, huquqlarni cheklash davlat ixtiyorida emas, balki qonuniy va demokratik mezonlarga asoslanadi.

Bundan tashqari, 21-modda inson sha'nini oliy qadriyat sifatida e'tirof etadi va uni davlat tomonidan himoya qilish majburiyatini yuklaydi. Bu norma fuqarolarning daxlsizligini va qadr-qimmatini konstitutsiyaviy darajada kafolatlash orqali Rossiya huquqiy tizimida insonparvarlik tamoyillarining ustuvorligini ko'rsatadi.

Konstitutsiyaning 38–40-moddalarida esa davlatning oila, atrof-muhit va ijtimoiy farovonlik borasidagi majburiyatlari belgilangan. Jumladan, davlat:

- oilani va onalik, otalik hamda bolalikni himoya qilish;
- sog'lom ekologik muhitni saqlash;
- fuqarolarga ijtimoiy ta'minot, yordam va minimal yashash sharoitlarini yaratish borasida majburiyatlarga ega.

Bu majburiyatlar Rossiya Federatsiyasida konstitutsiyaviy huquqlarni faqat deklarativ emas, balki institutsional va amaliy darajada ta'minlashga qaratilganini ko'rsatadi. Davlat fuqarolarning nafaqat siyosiy va shaxsiy erkinliklarini, balki ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini ham kafolatlash orqali o'zining ijtimoiy mas'uliyatini amalga oshiradi.

21-modda inson sha'nini davlat himoyasiga qo'yadi, 38-40-moddalar esa oila, atrof-muhit, ijtimoiy kafolatlar borasida ham davlat majburiyatlarini belgilaydi [12]. Umumiy tendensiyalar va huquqiy mexanizmlar bugungi global konstitutsiyaviy yondashuvda huquq va majburiyatlar qarama-qarshi emas, balki o'zaro to'ldiruvchi elementlar sifatida qaralmoqda. Huquqlarni amalda ta'minlashda quyidagi mexanizmlar keng qo'llaniladi:

Konstitutsiyaviy sudlar — fuqarolar huquqlarining eng oliy himoya vositasi;

Ombudsman institutlari — ijro hokimiyati ustidan fuqarolik nazoratini ta'minlovchi mustaqil organ;

Parlament nazorati — huquq va majburiyatlar ijrosini tekshiruvchi siyosiy mexanizm [13].

Bu mexanizmlar orqali fuqaro va davlat o'rtasidagi huquqiy aloqaning barqarorligi ta'minlanadi.

Xulosa. Xorijiy davlatlar konstitutsiyalarida fuqaro va davlat o'rtasidagi huquqiy munosabatlar huquq va majburiyatlarning o'zaro bog'liqligi asosida shakllantirilgan. Har bir huquq — mos keluvchi majburiyat bilan uyg'unlashadi, bu esa demokratik davlatning muhim belgisi hisoblanadi. Huquqiy davlatda nafaqat fuqaro davlatdan nimalarnidir talab qiladi, balki u ham jamiyat oldidagi javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ushbu muvozanat konstitutsiyada aniq mustahkamlangan bo'lsa, davlat boshqaruvida barqarorlik va fuqarolik ishonchi ortadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Footnotes Barros, R. (2021). Constitutionalism and the Citizen-State Relationship. I-CONnect Blog. ↵
2. Versteeg, M. & Alton, L. (2020). Why Constitutional Rights Do Not Make States More Respectful. Comparative Constitutional Law Journal. ↵
3. Basic Law for the Federal Republic of Germany (Grundgesetz), Article 1. ↵
4. Kommers, D.P. & Miller, R.A. (2012). The Constitutional Jurisprudence of the Federal Republic of Germany. Duke University Press. ↵
5. Declaration of the Rights of Man and of the Citizen, 1789. ↵
6. Bellamy, R. (2008). Citizenship: A Very Short Introduction. Oxford University Press. ↵
7. Constitution of Japan, Articles 12–18. ↵
8. Iwasawa, Y. (1998). The Japanese Constitution and International Human Rights Law. Japan Review of International Human Rights. ↵
9. Constitution of the Republic of Korea, Articles 10–40. ↵
10. Kim, C. (2017). Constitutionalism in South Korea: Rights, Duties, and Democratic Development. Asia-Pacific Law Review. ↵
11. Constitution of the Russian Federation, Article 55. ↵
12. Henderson, J. (2011). The Constitution of Russia: A Contextual Analysis. Hart Publishing. ↵
13. Ginsburg, T. (2012). Judicial Review in New Democracies: Constitutional Courts in Asian Cases. Cambridge University Press. ↵